

## Surxondaryo viloyatida Demografik holat


(2020 yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy **aholi soni**. Surxondaryo viloyati doimiy aholisi soni 2020- yil 1-iyul holatiga 2652,9 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 23,8 ming kishiga yoki 0,9 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 963,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,3%), qishloq aholisi soni 1689,1 ming kishini (63,7 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**  
**2020 yil yanvar-iyun**


- Aholi soni 23,8 ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni 32,4 ming nafarni tashkil etdi.
- 5,3 mingta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida 6,5 mingta nikoh va 0,8 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.

**Surxondaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi**  
(2020- yil yanvar-iyun oylarida)



## Demografik holat

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi  
(2020- yil 1-iyul holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)



Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil iyul holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 388,1 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 %ni) va Qumqo'rg'on 236,0 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on 219,8 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 75,6 ming kishi (2,9 %) tashkil etdi.



## Demografik holat

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2019-2020- yillar 1-iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2019 yil	2020 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2594,4</b>	<b>2652,9</b>	<b>102,3</b>
Termiz sh.	178,0	182,1	102,3
<b>tumanlar:</b>			
Oltinsoy	173,9	178,0	102,4
Angor	130,4	133,3	102,2
Boysun	118,6	116,3	98,1
Bandixon		75,6	
Muzrabot	139,6	142,5	102,1
Denov	369,8	388,1	104,9
Jarqo'rgon	215,2	219,8	102,1
Qumqo'rg'on	250,5	236,0	94,2
Qiziriq	171,8	114,8	66,8
Sariosiyo	204,5	210,8	103,1
Termiz	75,5	77,8	103,0
Uzun	169,1	172,4	102,0
Sherobod	190,7	195,1	102,3
Sho'rchi	206,8	210,3	101,7

\*) dastlabki ma'lumot

Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil 1-iyul holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 388,1 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 % ni) va Qumqo'rg'on 236,0 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on 219,8 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 75,6 ming kishi (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan Denov tumani 4,9 % ni, Sariosiyo 3,1 % ni, va Termiz tumani 3,0 % ni, Oltinsoy 2,4 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qumqo'rg'on tumanida -5,8 % ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2020- yil 1-iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

<b>Tumanlar</b>	<b>erkak</b>	<b>ayol</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1341,0</b>	<b>1311,9</b>
Termiz sh.	89,9	92,2
<b>tumanlar:</b>		
Oltinsoy	91,4	86,6
Angor	66,7	66,6
Boysun	59,6	56,7
Bandixon	38,4	37,2
Muzrabot	70,6	71,9
Denov	198,1	190,0
Jarqo'rgon	112,7	107,1
Qumqo'rg'on	116,8	119,2
Qiziriq	58,0	56,8
Sariosiyo	105,3	105,5
Termiz	39,2	38,6
Uzun	88,1	84,3
Sherobod	99,0	96,1
Sho'rchi	107,2	103,1

## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2020- yilning yanvar-iyun oylarida 32,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,7 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega oshgan (2019- yilning yanvar-iyun oylarida 24,2 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan Termiz shahrida (17,1 promilledan 31,6 promillega), Oltinsoy (23,1 promilledan 25,7 promillega), Sariosiyo (22,0 promilledan 22,6 promillega) Sho'rchi (24,0 promilledan 24,5 promillega), Sherobod (23,0 promilledan 23,4 promillega) kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

**Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskularning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.**



Surxondaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni  
(2019-2020- yil yanvar-iyun oylaru)

Tumanlar	2019 y	2020 y	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>30 973</b>	<b>32 407</b>	<b>104,6</b>
Termiz sh.	1511	2845	188,3
<b>tumanlar:</b>			
Oltinsoy	1985	2264	114,1
Angor	1543	1565	101,4
Boysun	1357	1314	96,8
Bandixon	-	1017	-
Muzrabot	1553	1513	97,4
Denov	4801	4879	101,6
Jarqo'rgon	2801	2822	100,7
Qumqo'rg'on	3076	2855	92,8
Qiziriq	2222	1450	65,3
Sariosiyo	2201	2356	107
Termiz	1292	770	59,6
Uzun	1980	1949	98,4
Sherobod	2196	2260	102,9
Sho'rchi	2455	2548	103,8

## Demografik holat


### Tumanlar kesimida tug`ilganlar koeffitsiyenti (2019-2020- yil yanvar-iyun, kishi)

	2019 г.	2020 г.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan (+;-)
<i>Surxondaryo viloyati</i>	<b>24,2</b>	<b>24,7</b>	<b>102,1</b>
Termiz sh.	17,1	31,6	184,8
<b>tumanlar:</b>			
Oltinsoy	23,1	25,7	111,3
Angor	24,0	23,7	98,8
Boysun	23,2	22,8	98,3
Bandixon		27,2	
Muzrabot	23,0	21,4	93,0
Denov	26,0	25,4	97,7
Jarqo'rgon	26,0	25,9	99,6
Qumqo'rg'on	25,0	24,4	97,6
Qiziriq	26,0	25,5	98,1
Sariosiyo	22,0	22,6	102,7
Termiz	34,8	20,0	57,5
Uzun	24,0	22,8	95,0
Sherobod	23,0	23,4	101,7
Sho'rchi	24,0	24,5	102,1

### Vafot etganlar

**Vafot etganlar.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 5,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,0 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2019- yilning yanvar-iyun oylarida 3,9 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan kamayishi Termiz tumani (6,4 promilledan 5,6 promillega), Denov (4,1 promilledan 3,8 promillega), Angor (3,9 promilledan 3,8 promillega), Uzun (3,7 promilledan 3,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.



Surxondaryo viloyati bo'yicha vafot etganlar soni  
(2020- yil yanvar-iyun oylaru)


Tumanlar	2019 y	2020 y	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan (+;-)
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>4 935</b>	<b>5 251</b>	<b>316</b>
Termiz sh.	308	384	76
<b>tumanlar:</b>			
Oltinsoy	302	311	9
Angor	254	250	-4
Boysun	209	219	10
Bandixon		137	137
Muzrabot	251	281	30
Denov	745	727	-18
Jarqo'rgon	457	509	52
Qumqo'rg'on	448	451	3
Qiziriq	300	222	-78
Sariosiyo	345	377	32
Termiz	239	217	-22
Uzun	307	310	3
Sherobod	375	397	22
Sho'rchi	395	459	64

## Demografik holat

2020- yilning yanvar-iyun oylarida 5,2 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 61,3 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,6 % i o'simtalardan, 3,9 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,1 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan 0,5 % i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 18,4 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 55,4 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 24,2 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 15,2 % i tug'ma anomaliyalardan va 5,2 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



**Tabiiy o'sish.** 2020- yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 27,1 ming kishini (2019- yilning yanvar-iyun oylarida 26,0 ming kishi ) tashkil etdi.



Tabiiy o'sish:  
27,1 ming kishi



## Demografik holat

**Nikoh.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 6,5 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 4,9 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'atlari Denov (416 kishi), Qumqo'rg'on (340 kishi), Jarqo'rg'on (335 kishi), Qiziriq (314 kishi) to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2020- yilning yanvar-iyul oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan koeffitsiyenti, 0,6 promilleni tashkil etdi. Ajrimlar soni 2019 yilning mos davriga nisbatan yuqori kamayish sur'atlari Jarqo'rg'on (63 kishi), Denov (33 kishi), Termiz sh (25 kishi), Uzun (24 kishi) to'g'ri kelmoqda.



### Nikoh tuzganlar va nikohdaan ajralishlar (2019-2020- yil yanvar-iyun , o'sish o'tgan yilga nisbatan )



Tumanlar	Nikoh tuzganlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019 y.	2020 y.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +,- (birlik)	2019 y.	2020 y.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +,- (birlik)
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>9 120</b>	<b>6 497</b>	<b>-2623</b>	<b>934</b>	<b>751</b>	<b>-183</b>
Termiz sh.	478	356	-122	101	76	-25
<i>tumanlar:</i>			0			0
Oltinsoy	481	379	-102	38	43	5
Angor	516	373	-143	41	32	-9
Boysun	298	198	-100	29	30	1
Bandixon	0	185	185	0	12	12
Muzrabot	449	365	-84	38	36	-2
Denov	1326	910	-416	157	124	-33
Jarqo'rg'on	977	642	-335	106	43	-63
Qumqo'rg'on	900	560	-340	66	55	-11
Qiziriq	592	278	-314	50	38	-12
Sariosiyo	760	616	-144	62	62	0
Termiz	392	175	-217	48	27	-21
Uzun	646	460	-186	83	59	-24
Sherobod	604	497	-107	51	60	9
Sho'rchi	701	503	-198	64	54	-10

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2020- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,2 ming kishini , ko'chib ketganlar soni esa 6,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 3,4 ming kishi bo'lib, 2019 yilning mos davrida minus 1,5 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)  
(2019-2020- yil yanvar-iyun )

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Denov tumanida (minus 0,6 ming kishi), Uzun tumanida (minus 0,6 ming kishi), Sariosiyo (minus 0,5 ming kishi), Jarqo'rgon (minus 0,4 ming kishi) qayd etildi.

	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun
<b>Ko'chib kelganlar</b>	5,2	3,2
<b>Ko'chib ketganlar</b>	6,7	6,6
<b>Migratsiya saldosini</b>	-1,5	-3,4



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi  
tel: (76) 225-65-60